

## YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 23 (1084), 2024-yil 1-fevral, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## FARMATSEVTIKA SOHASINI TARTIBGA SOLISH BO'YICHA QO'SHIMCHA TOPSHIRIQLAR BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev farmatsevtika sohasini tartibga solish, aholini sifatli va xavfsiz dori vositalari bilan ta'minlash masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Dunyoda farmatsevtika sanoati kengayib bormoqda, dori-darmonlarning yangicha turlari va tarkiblari paydo bo'lmoqda. Bu ularning sifatini doimiy nazorat qilish, nojo'ya ta'sirlarini aniqlash va tahlil etish zaruratini tug'dirdi.

Shu bois, 23-yanvar kuni "Farmatsevtika sohasini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident farmoni qabul qilindi.

Unga ko'ra, dorilar va tibbiy buyumlarni tayyorlovchi hamda sotuvchi tashkilotlar bu mahsulotlarning sifatini va xavfsizligi uchun ham mas'ul etib belgilandi. Shundan kelib chiqib, ularga nisbatan davlat nazoratini amalga oshirishning alohida qoidalari o'rnatildi.

Dori vositalari iste'moli bilan bog'liq xavflarni tezkor aniqlash va chora ko'rishga qaratilgan tizim tashkil etiladi. Buning uchun "Zarur farmakologik nazorat amaliyoti — GVP" standarti joriy etilib, Sog'liqni saqlash vazirligida dorilarning nojo'ya ta'siri

to'g'risida elektron baza shakllantiriladi. Bu haqdagi ma'lumotlarni tibbiyot xodimlari va aholiga tezkor yetkazish yo'lga qo'yiladi.

Dorilar va tibbiy buyumlarni saqlovchi bojxona va erkin omborlar bosqichma-bosqich "Zarur saqlash amaliyoti — GSP" qoidalari talablariga muvofiqlashtiriladi. Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi huzuridagi Zarur amaliyotlar markazi davlat korxonasi sifatida qayta tashkil etiladi.

Teleradiokanallar orqali dorilar va biologik faol qo'shimchalarni reklama qilish Sog'liqni saqlash vazirligida tashkil etiladigan maxsus kengashning xulosasi asosida mumkin bo'ladi.

Davlatimiz rahbari bu tarmoqning aholi salomatligi va iqtisodiyotdagi ahamiyatini ta'kidlab, farmon ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

## Xalqaro hamkorlik

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 23-25-yanvar kunlari Xitoyga tashrif davomida ushbu davlatning innovatsion poytaxti — Shenchjen shahrida o'tkazilgan qo'shma investitsiya forumida ishtirok etdi. Shu bilan O'zbekiston — Xitoy munosabatlari barcha jabhalarda har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi.



## QADIM TARIXGA EGA SIVILIZATSIYALAR

O'ZARO HURMAT RUHIDAGI MUNOSABATLARDA YANGI SAHIFA OCHMOQDA

## ALOQALARNING TADRIJIY RIVOJI

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar tarixi qadim davrlar — hali Buyuk ipak yo'li ochilmagan paytlarga borib taqaladi. Xan sulolasi va Farg'ona vodiysidagi Parkana davlati ora-

sidagi ilk diplomatik aloqalar eramizdan oldin yo'lga qo'yilgan. Ammo tomonlar o'rtasidagi munosabatlar eng dinamik rivojlangan palla Buyuk ipak yo'li gullab-yashnagan paytga to'g'ri keladi. O'shanda Chin ipagi, qog'oz, chinnisi, choyi va boshqa tovarlar Samarqand, Buxoro kabi shaharlar orqali Yevropaga yetib borgan.

Xitoy, Markaziy Osiyo va Yevropa orasidagi bilimlar almashinuvi ham Buyuk ipak yo'li orqali kechgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatlar orasidagi gumanitar aloqalarning eng gullagan payti Tan sulolasi davriga to'g'ri kelgan.

Davomi 3-betda

## Tahlil va taqqos

## KREDIT FOIZ STAVKALARI NEGA YUQORI?

IMTIYOZ MAQSADLI VA MANZILLI BO'LSAGINA, SAMARA KELTIRADI

Odatda yirikroq moliyaviy maqsadga tezroq erishish uchun qarz olish orqali masalani hal qilishga harakat qilinadi. Zamonaviy tilda bu kredit deb atalib, pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to'lab qaytarish sharti bilan muayyan muddatga qarz berish tushuniladi. Misol uchun, banklar pullarni bir biznes subyektidan qarz olib, boshqasiga beradi. Pulni qarz sifatida olib ishlatgan korxonada buning uchun foiz to'laydi. Moliyaviy tashkilot shundan foyda ko'radi.

Kreditning tijorat, bank, davlat, iste'mol, xalqaro, ipoteka va boshqa shakllari mavjud. Ular orasida imtiyozli kreditlar alohida o'rin tutadi. Chunki bu kreditlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida tashkil etilgan davrlarning maxsus jam'armalari yoki xalqaro moliya tashkilotlari hisobidan turli imtiyozlar asosida ajratiladi. Ularning shartlari bevosita resursni taqdim etayotgan tashkilot tomonidan o'rnatiladi.

Kredit iqtisodiyotda muhim

vazifani bajaradi, ishlab chiqarishni kengaytirish, eksportni oshirish, ustuvor sohalar faoliyatini jadallashtirish uchun mablag'ni eng foydali va istiqbolli yo'nalishlarga yo'naltirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Joriy yildagi sanoat korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalarga e'tibor bersak, bunda ham boshqa iqtisodiy rag'batlar kabi imtiyozli kreditlar muhim dastak bo'layotganini ko'rish mumkin.

Davomi 4-betda

## Uyg'oq fikr

## INSON VATANI, TILI, MADANIYATI, JANGOVARLIGI BILAN TIRIK

Hozirda ozod mamlakatning har bir ongli fuqarosi o'z hayotida dunyo axborot oqimlarining shiddatli zabtini sezib turadi. Istaydimi, istamaydimi, o'zi ham shu axborot oqimlarining ishtirokchisiga aylanadi. Shu o'ta ziddiyatli oqimlarda SHAXS shakllanadi, mamlakatning yangi qiyofasi shakllanadi. Axborot ularning ichki hamda tashqi qiyofalariga dam-badam sifat o'zgarishlarini olib kiradi.



Hakim Yo'lqoshev olgan surat.

## Ibrohim G'AFUROV, O'zbekiston Qahramoni

Keyingi vaqtlarda atrofimizda paydo bo'layotgan axborotlar ichida bizni g'oyat quvontirayotganlari, ilhomlantirayotganlari, g'ayrat kamarini belga mahkam bog'lab, islohot duldlarini dadil olg'a boshlashga chaqirayotganlari bilan birgalikda XXI asr dunyosida tamomila eskitib, anaxronizmga aylanib ulguragan imperiyachilik asoratlarini o'q'ib, ularni turli shakllarda tiklashga chaqirayotgan ovozlarni ham quloqlarimizga bot-bot chalinib turadi.

Ularni tinglab, shu zamonada ham neokolonializm vasvasalari hali batamom tugab bitmagan ekan-da, degan xulosaga kelasiz. Har holda, ularga qaraganda O'zbekiston mamlakati, o'zbek xalqini yana tobe, zabun holga tushirishni orzu qilib, erta-kech shuni mo'ljal olib, tayyorgarlik ko'rib yotgan tuban, ashaddiy bosqinchi kuchlar tarix sah-nasidan badar yo'qolmaganini ko'rib, chuqur o'y-mulohazalarga botasiz. Boyqushu quzgunlarning inson qoni, zardobiga to'yman manhus ovozlari Yer yuzidan, go'zal Markaziy Osiyodan o'chmagan ekan-da. Darvoqe, darhol bularning oldini birvarakay olmoq kerakligi borasida ziyoli fikrga kelasiz.

O'zbekiston ikki asr davom etgan, bizni xalq, inson sifatida yo'q qilib yuborishga muttasil intilib kelgan tajovuzkor bosqinchi kuchlarning zulm-zo'raonliklarini aslo unutgan emas. Ona yurt, ozodlik yo'lida janglarda to'kilgan qonlar muqaddas!

Ikki asr sanoqsiz qurbonlar tabarruk yodi unutilgan emas. Xalqning ne-ne aql, salohiyat, iste'dod yulduzlari nohaq qirildi, ne-ne asarlar mahv etildi, ne-ne obidalar xarobaga aylandi. Vatani, sha'ni, ozodligi, erki, dunyodagi o'z haqqoniy o'mi uchun fido bo'lgan ajdodlarning so'zlarini, xayollari, dasturlari biz uchun muqaddas, kurashlarga, janglarga chorlab, ilhomlantirib turadi har damda! Ularning qutlug' qoni muqaddas qilgan yerimiz, suvimiz, musaffo havomizni saqlash, himoya qilish har birimiz uchun sharaf, farzandlik burchimiz, a'molimizdir.

Biz, yangi zamon quruvchilari, XXI ma'ru'f asr ziyolilari neokolonializm, imperiyachilik talvasalarini keskin va butunlay rad etamiz. XXI asr olamida endi ularga aslo o'rin yo'q, deb bilamiz.

Ey begunoh insonlar qonini to'kishdan, bani basharga faqat zavol keltirishdan to'yman kimsalar, chekiningiz endi! Yetar, Yer yuzini vayronalarga aylantirganingiz. Alhazar! Ilon-chayonlar so'ng dam kelganda o'z zaharli nishlarini o'zlariga urajaklar va yana o'zlarini dumlaridan boshlab batamom yeb bitirajaklar!

O'zgarar moli, joniga to'yamaydigan borligini bilamiz.

Biz zulm nish berganda qarab, tomosha qilib o'tiradigan xalq emasmiz. Tadbir aqldan, deydlar. Tadbirimizni ko'ramiz. Tahdid-tajovuzlarni mahv etguvchi yaxlit yagona kuchga aylanamiz. Bunga irodamiz, matonatimiz yetarli. Jasoratimiz, strategiyamiz tarix sinovlaridan o'tgan!

O'zbekiston, o'zbek xalqi — tinchlikparvar, islohotparvar, ilmparvar xalq. Prezidentimiz iqtisod, madaniyat, ilm-ma'rifat, xalqaro munosabatlarning rang-barang soharlarida samarali muloqotlar, aloqalar, hamkorliklarni keng yo'lga qo'yimoqda. Taraqqiyparvarlik siyosatini asl siyosat darajasiga ko'tarmoqda. Mudhish ayirmachiliklarni qat'iy rad etmoqda. Ayirmachiliklar ne-ne kulfatlarni yog'dirmadi Markaziy Osiyo, Turon-Turkiston xalqlari boshiga, hayotiga!

O'zbekiston rahbarining chin insonparvarlik va taraqqiyparvarlik siyosati jahon afkor ommasining tahsiniga, qo'llab-quvvatlashiga erishmoqda. Millionlagan yosh avlod, millionlagan xotin-qizlar, o'rta va keksa yoshdagi kishilar istiqbol hayotidan o'z munosib o'rini topmoqda, bolalar bilim cho'qqilarini ishg'ol qilmoqda, eng yangi tadqiqotlar umuminsoniyat, Yer yuzida hayotni saqlab qolish, ekologik madaniyat tamoyillarini kuchaytirishga xolis xizmat qilayotir. Demokratik g'oyalar xalq hayoti qarashlariga evolyutsion tarzda chuqur singib, turmush farovonligini yuksaltirmoqda. Biz nima qilamiz? Chetdan kelayotgan do'q-po'pisalar, saltanatchilar ovozlari tovlanishlarini indamay, jon qolig' bilan tinglab o'tiraveramizmi? Yo'q, bu bizning yo'limiz emas! Odatimiz emas!

Aslo qarab o'tirmaymiz! Rang-barang diplomatik choralar ko'ramiz, jahon afkor ommasining diqqat-e'tiborini bu jabhalarga tinimsiz, hech qanday charchoq bilmasdan jalb

etamiz. Mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini qadam-baqadam izchil tarzda mustahkamlab boramiz. Yosh yigit-qizlarimiz jangovar bo'lishi, eng yangi jahon harbiy bilimlari bilan qurollanishi, eng yangi qurollashalarni mukammal egallashiga erishamiz.

Neokolonializm tarafdorlarining irkit siyosatlarini, mag'zavaga qorishgan kirdikorlariga befarq qaramaslik, it hurar, karvon o'tar, deb beg'am bo'lmaslik, tarixning shafqatsiz saboqlaridan hayot va kelajak uchun eng zarur xulosalarni chiqarish har birimiz uchun g'oyat muhim va bir zum ham kechiktirilmaydigan ishdur.

1865-yil yoz oyi Toshkand ostonasidagi fojialar, 1918-yil bahor faslidagi qonga botgan muxtoriyatimiz bizdan javob so'rashini hech kim hech qachon unutmasin. 1937-yil asl iste'dodlarimiz shafqatsiz nobud qilingani o'zbekman deganning, o'zini vatanparvar sanaganing esidan chiqmasin. Tamomila puch va o'taketgan soxta narsalar, sho'ir aytmoqchi, "shirin yolg'onlar" aqlimizni band etmasin. XXI asrda yashayotganimizni bir zum ham unutmaylik!

XX asrda ikkita og'ir jahon urushini boshidan kechirgan Yevropa va Amerika, Yaponiya to'la tiklanib, zo'r taraqqiyot yo'lidan ketmoqda. Biz esa shu asrda vayron va xarob bo'lib qoldik. Chunki tarixdan saboq chiqarmadik. Saboq chiqarmaganlar yo'llarini yo'qotadi, gumroh nomini, tamg'asini oladi. Biz shuni istaymizmi? Juda to'g'ri, it hurar, karvon o'tar. Biroq biz qarab turmaylik!

## NUQTAYI NAZAR

AHOLI XAVOTIRI BEJIZ EMAS  
Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi 2

## DOLZARB MAVZU

VATANPARVARLIK o'z-o'zidan shakllanmaydi 6





## Munosabat

## KO'P QAVATLI UYLAR YERTO'LASIDAN UNUMLI FOYDALANYAPSIZMI?

Sardorxon SODIQXONOV,  
Farg'ona viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida kommunal soha tahlilida aksariyat ko'p qavatli uylardagi energiya sarfi yuqoriligi qayd etildi. Aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish maqsadida ko'p kvartirali uylarning istish tizimlarini tubdan yaxshilash, boshqaruv-servis kompaniyalari faoliyatini takomillashtirish, ochiqlikni ta'minlash borasida aniq vazifalar belgilab berildi.



Issiqlik sarfini kamaytirish, yo'qotishlarning oldini olish, sohaga investitsiya jalb etish, qozonxonalarini yangilash, issiqlik tizimi tariflarini qayta ko'rib chiqish, ularga xususiy sektorni jalb etish bugungi kunning muhim masalalaridan ekani ta'kidlandi.

Farg'ona viloyatida 3949 ta ko'p kvartirali uyda 476 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. 3632 uyuq 60 ta boshqaruv kompaniyasi, 19 tasiga shirkatlar xizmat ko'rsatadi. 12 uy o'zini o'zi boshqaruvchilar hisoblanadi. 2023-yilda 14,2 milliard so'mlik byudjet mablag'lari evaziga 312 ta hamda boshqaruv-servis kompaniyalari mablag'lari hisobiga 282 ta ko'p qavatli uy mukammal va joriy ta'mirlandi. Iste'molchilarga issiqlik energiyasi yetkazib berish sifatini oshirish, uning uzluksizligini

ta'minlash, issiqlik ta'minoti tizimiga zamonaviy, tejamkor va kam energiya sarflaydigan texnologiyalarni joriy etish, yangilash hamda modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilayotgani.

Farg'ona shahri Abdulla Qodiriy mavzesidagi ko'p qavatli uy-joylarni markazlashgan issiqlik bilan ta'minlashda innovatsion texnologiyalar joriy qilindi. Yangi texnologiya har qanday sovuq ob-havo ta'sirida ham kam energiya va yoqilg'i sarflanish holida, uylar va ijtimoiy soha obyektlariga yetarli bosim va haroratda issiqlik uzatadi. Bu maqsadlar uchun qariyb 140 milliard so'm yo'naltirilib, mavzeda joylashgan 203 ta ko'p qavatli uy hamda 29 ta ijtimoiy soha obyektlarini "RK-3" qozonxonasi orqali markazlashgan issiq suv va issiqlik bilan ta'minlash rejalashtirilgan. Dastur doirasida 73,4 kilometr uzunlikdagi magistral issiqlik tarmoqlari yangilandi. Zamonaviy individual issiqlik punktlarini o'rnatish ishlari jadal sur'atda olib borilmoqda. O'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra, yangi loyiha hududidagi ko'p qavatli uylarda bir issiqlik davrida 21 million kub metr tabiiy gaz, 9,5 million kVt. elektr energiyasini iqtisod qilib, 10,8 milliard so'm miqdordagi mablag'ni tejab qolish, kommunal to'lovlar tannaxrini arzonlashtirish imkoniyatini beradi.

Yana bir masala — ko'p kvartirali uylar yerto'lasida xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyatini yo'lga qo'yish. Qo'shimcha ish o'rinlari yaratish hududni obod va ozoda saqlash imkoniyatini beradi. Bu borada tashabbus ko'rsatib ish olib borayotgan tadbirkorlar ko'p. Lekin bu mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilayotgani, degani emas. Aksariyat uylarning yerto'lasida ko'p bo'lmagan.

Ayni kunda viloyatdagi ko'p kvartirali 3500 dan ziyod uyning yerto'lalaridan samarali foydalanilmayapti. Videoselektorda belgilab berilgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida 700 dan ziyod yerto'lani tashabbuskor tadbirkorlarga berish, u yerda ish o'rinlari yaratish harakatidamiz. Ko'p qavatli uylar yerto'lasidagi bo'sh joylarni ijaraga berishning yangi tartibi joriy qilingani ayni muddao bo'ldi. Yerto'la va bo'sh maydonlar haqida ma'lumotlar raqamlashtirilib, "Mening uyim" tizimiga bog'lanib, aholi tashabbuslari ochiq e'lon qilish tartibi ko'plab xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyatini yo'lga qo'yish, yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatini beradi. Ijara to'lovlari ham "Mening uyim" platformasi orqali hisob-kitob qilinishi va jarayon aholi uchun ochiq bo'lishi ham undan maqsadli foydalanish, ortiqcha byurokratik to'siqlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Oldinda qilishimiz kerak bo'lgan ishlar, vazifalar ko'p. 2024-2025-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida jami 7 ta qozon va 4 kilometr issiqlik tarmoqlarini ta'mirlash belgilangan.

## Islohotlar samarasi

## YUTUQLAR O'ZIMIZNIKI, MUHIMI, ORTGA CHEKINMASLIK

O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashda o'z natijasini 15 ballga yaxshilagan yagona davlat sifatida qayd etildi

Umida TO'XTASHEVA,  
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari,  
yuridik fanlar doktori, professor

Har bir davlat siyosiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va farovonlikka intiladi. Shu maqsadda turli chora-tadbirlar qo'llaydi, o'zgarishlar qiladi. Yurt va xalq farovonligiga, o'zgarishlar muvaffaqiyatiga erishishning asosiy shartlaridan biri korrupsiyaga qarshi kurashishdir.

Hukumatlar davlat organlari mas'uliyatini kuchaytirish, xususiy sektorda halollikni rivojlantirish shartlari va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlash bo'yicha turli strategiyalar, dasturlar va chora-tadbirlarni qabul qilmoqda. Ammo korrupsiyaga qarshi kurashish shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoning asosiy muammolaridan biri sifatida saqlanib qolyapti.

Hozir dunyoda korrupsiyaning zarari qariyb 3 trilyon AQSH dollarini tashkil etadi. Biroq Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko'rilayotgan real zararni aniq hajmini to'liq ifoda eta olmaydi. Eng yomoni — jamiyat ko'radigan ma'naviy zarar ko'lamini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi".

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijalarini nisbiy baholashga qaratilgan turli tadqiqotlar, reyting va indekslar mavjud. Shular qatoridagi Korrupsiyani qabul qilish indeksi, davlat siyosati va ko'rilayotgan chora-tadbirlarda belgilangan vazifalar korrupsiya muammosining qay darajada hal etilayotganini aniqlashga yordam beradi.

Korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI) 1995-yildan buyon 13 ta ekspert manbasi, jumladan, Jahon banki, Jahon iqtisodiy forumi, xususiy konsalting va reyting agentliklari, tahlil markazlari va boshqa tashkilotlar ma'lumotlari asosida shakllantiriladigan, davlat sektoridagi korrupsiyani qabul qilishni aniqlovchi reytingdir. Unda 180 ta davlat 0 dan 100 gacha bo'lgan shkala bo'yicha tasniflanadi, 0 — eng yuqori va 100 — eng past korrupsiya darajasini aks ettiradi. Indeks ko'plab mamlakatlarda korrupsiyani qiyosiy baholash sohasidagi eng mashhur ishlarnalardan biridir.

Joriy yil 30-yanvar kuni "Transparency International" xalqaro tashkiloti 2023-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksini e'lon qildi. Undagi natijalarga ko'ra, O'zbekiston indeksdagi o'rni izchil yaxshilab, 33 ball bilan 180 davlat ichida 121-o'rinni egalladi.

Daniya, Finlyandiya va Yangi Zelandiya reytingning yuqori pog'onalarini egallab turibdi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, G'arbiy Yevropa va Yevropa Ittifoqi eng yaxshi ko'rsatkichli mintaqa bo'lib qolsada, nazorat va muvozanat zaiflashishi va siyosiy bir-



damlik buzilishi oqibatida bu yil o'rtacha mintaqaviy ball 65 ga pasaydi. Bu siyosiy barqarorlikni, davlat apparatining qonun ustuvorligi tamoyili asosida faoliyat yuritishi va huquq tizimida adolati siyosatni ta'minlash masalalariga tizimli va izchil e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, O'zbekiston keyingi yillarda korrupsiyani qabul qilish bo'yicha ijobiy o'zgarishlar qayd etayotgan yagona davlat va uning ko'lamini bo'yicha mintaqa yetakchisiga aylandi. Bu 2017-yildan buyon mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida yuritilayotgan davlat siyosati tufayli amalga oshdi.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish bo'yicha vazifalarni samarali bajarish korrupsiyaga qarshi kurashishda tizimli chora-tadbirlar qabul qilishni taqozo etmoqda. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishga qaratilgan demokratik islohotlar muvaffaqiyatining asosiy mezonlaridan biriga aylanmoqda.

Ushbu zarurlardan kelib chiqib, keyingi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy va institutsional asoslar yaratildi. Bu illatga qarshi davlat siyosatini shakllantirish va yuritish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratish, davlat organlari hisobdorligi va ochiqlikni kuchaytirish, axborot texnologiyalarini qo'llash va fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va boshqa chora-tadbirlarga qaratilgan 80 dan ortiq huquqiy hujjat qabul qilindi.

"Inson qadri uchun" tamoyili asosida davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish, tadbirkorlik sohasida korrupsiyaviy xavflar va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olish masalalarini birinchi o'ringa qo'yilmoqda.

Faoliyat ochiqligi, oshkorligini ta'minlash va idoralar hisobdorligini oshirish, byurokratiyani qisqartirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishni soddalashtirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan profilaktik mexanizmlar keng qo'llanilmoqda. Xususan, barcha davlat idoralarda kompleks nazorat va samaradorlikni baholash tizimlari yo'lga qo'yilgan. Davlat xaridlari to'liq raqamlashtirildi.

Oliy Majlis palatalari majlislarida Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy hisobotni eshitish amaliyoti joriy etildi. Eng korrupsiyalashgan hududlar va sohalarni aniqlash uchun reyting va indekslar ishlab chiqilgan. "Korrupsiyasiz soha", "Korrupsiyasiz hudud", "Shaffof vazirlik", "Shaffof hudud" loyihalari amalga oshirilmogda. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirib, tushuntirish va tarbiyalash ishlari olib borilyapti.

Ilg'or tajribani o'zlashtirish va BMT konvensiyasi qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan xalqaro hamkorlik faol rivojlanmoqda. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish, samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik qilinaypti. Bu va boshqa chora-tadbirlar mamlakat korrupsiyani qabul qilish indeksining so'nggi 7 yil ichida yaxshilanishi, 2017-yildagi 22 ball dan hozirgi 33 ballga ko'tarilishi garovi bo'lib xizmat qildi.

Mutaxassislar hisobotida ta'kidlaganidek, ijobiy o'zgarishlar qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha turli tartib-taomillar, shuningdek, vazirlik va idoralarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tizimlarining muvaffaqiyatli joriy etilgan bilan bog'liq. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik choralarini qat'iy qo'llanilishi ham qayd etilgan.

Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari faoliyatini faollashtirish, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishga katta e'tibor qaratilayotgani ham bu natijalarga turki bo'ldi. Davlatimiz rahbari 2023-yil 19-dekabrda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro yuksak mukofotni topshirish marosimida belgilab bergan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha ma'lumotlarni milliy strategiyani qabul qilish, Korrupsiya muammolari bo'yicha mintaqaviy tadqiqot markazini tashkil etish, BMTning Korrupsiyaga qarshi ta'lim va yo'shlarining imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini O'zbekistonda keng joriy etish, jurnalistlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish, fuqarolik jamiyatining sa'y-harakatlarini birlashtirish korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yanada yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi.

## Nuqtayi nazar

## AHOLI XAVOTIRI BEJIZ EMAS Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi



Islom XUSHVAQTOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Toshkent shahrining bugungi ekologik holati, aniqroq aytganda, havosi ifloslanish darajasining oshib ketishi ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. O'z navbatida, aholi salomatligi uchun xavf tug'dirayotgan ushbu ekologik muammoning sababi va yechimlari bo'yicha turli fikrlar bildirilyapti.

Faol yurtdoshlarimiz tomonidan berilgan barcha takliflar tavsiyaviy xarakterga ega bo'lsa-da, ular orasidagi asosilari hukumatga muammolarni hal etish uchun dastak vazifasini o'taydi. Xuddi shu maqsadlarda ham bugun mamlakatimizda ijtimoiy tarmoqlar instituti demokratik qadriyatlar darajasiga olib chiqilmoqda.

huquqlari kafolatlangani ham alohida e'tirofga sazovor.

2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi, 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham sohani rivojlantirishda asosiy dasturlamal bo'layotir.

Prezidentimiz raisligida shu yil 29-yanvar kuni uy-joy va kommunal xo'jaligi, qurilish, transport va ekologiya sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasini yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, Toshkent shahrida ekologik holatni yaxshilash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Albatta, keyingi paytlarda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmisel shamollar va chang-qum bo'ronlarining atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish maqsadida tizimli choralar ko'rilayotgani bejiz emas. Chunki poytaxtimizda tartibsiz qurilishlar soni ortgani havoning chang bilan ifloslanishida asosiy manba bo'lib qolmoqda.

Ushbu tizimda 3 ta vazirlik va idora, 3 ta inspeksiya, 5 ta kompaniya, hududlarda qurilish, uy-joy va kommunal xo'jaligi sohalariga mas'ul hokim o'rinbosarlari bor. Toshkent shahri va viloyati hokimlariga qurilish va kommunal sohaga alohida e'tibor beril-



gan. Shunga qaramay, bu kompleks yurtdoshlarimiz eng ko'p norozi bo'lib murojaat qiladigan sohalardan biri bo'lib qolyapti.

Yig'ilishda qurilish sohasiga zamonaviy standartlarni joriy qilib, qurilish normalarini yangilash, ichimlik suvi tannaxri va tarmoqdagi yo'qotishlarni pasaytirish, mahalliy aviareyslarni ko'paytirish, Toshkent shahrida tirbandlikni kamaytirish va jamoat transportini yaxshilashdagi kamchiliklar birma-bir sanalib, mutasaddilarning bu boradagi ishlari qoniqarsiz ekani tanqid ostiga olindi.

Poytaxt atmosfera havosining zaharli gazlar bilan ifloslanishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biri — transport vositalariga to'xtaladigan bo'lsa, bu masala allaqachon dolzarb ahamiyatga ega bo'lib ulgur-

gan. Binobarin, bugungi kun haydovchilari tili bilan aytganda, "megaprobka"lar Toshkent uchun oddiy holga aylandi. Bu, bir tomondan, yo'lovchilarning qimmatli vaqtini yo'qotishiga sabab bo'layotgan bo'lsa, boshqa tomondan, tiqilinchda turgan avtotransportlaridan havoga nisbatan ko'p miqdorda zaharli gazlar chiqishiga olib kelyapti.

Yig'ilishda ana shu jihatlarni inobatga olinib, poytaxtimizda og'ir yuk mashinalari, ishlab chiqarilganiga 10-yildan oshgan avtomobillar hamda "Yevro-4" standartidan past yonilg'idan foydalanishning ekologiyaga ta'sirini kamaytirish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi belgilab berilgani atrof-muhit muhofazasi, xalqimiz salomatligini asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yig'ilishda yil yakuniga qadar yuzdan ortiq yirik sanoat korxonasi va barcha sement ishlab chiqaruvchilarda zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish va eskilarini almashtirish, havoga chang tashlash darajasi yuqori korxonalarda filtrlarni yangilash muhimligiga ham urg'u berildi.

Kelgusi besh yil davomida Toshkent shahri va unga tutash Toshkent viloyati tumanlarini to'liq yashillik bilan qoplashni nazarda tutuvchi kamida 3 ming gektar "yashil belbog" va 200 gektar "yashil bog" tashkil etilishi eng to'g'ri va oqilona qaror bo'ldi, deb o'ylayman.

Shu jihatdan, bugun har birimiz qo'l qovushirib o'tirmasdan, yashil maydonlarni ko'paytirishga jiddiy kirishishimiz lozim. Buning uchun yangi qit'a kashf qilish ham shart emas. Shunchaki "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida e'lon qilingan har bir ko'chatni e'tibor bilan parvarishlashimiz shart.

Sirasini aytganda, yurtimizning go'zal tabiati, musaffo havosi, zilloddek tiniq va shifobaxsh suvlari har qanday kishini o'ziga maftun etadi. Mana shunday betakror go'zallikni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish har birimizning burchimizdir. Aks holda, iqlim o'zgarishlari tufayli kuchayib boradigan turli salbiy ekologik muammolar sabab yo'qotadiganlarimiz yanada ko'p va ayanchli bo'ladi.

Yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar har birimizni yanada faolroq bo'lishga, ushbu soha rivoji uchun samarali mehnat qilishga undaydi. Chunki biz yashayotgan hudud muassafoligi, ekologik muvozanati, avvalo, barchamizga birday daxldor. Daxldorlik, o'z navbatida, oilasini, mahallasini, kasbini, Vatani sevish, ular uchun mas'uliyatli bo'lish, demakdir. Boshqachga aytganda, har bir insonning ko'ngli obod bo'lishi kerak. Zero, har qanday obodlik, farovonlik, taraqqiyot ko'ngil obodligidan boshlanadi. Yig'ilishda belgilab berilgan zalvarli vazifalarni sa'y-harakatlarimizni birlashtirib, obod ko'ngil ila amalga oshirsak, ekologiya barqarorligini ta'minlashga katta zamin yaratgan bo'lamiz.





## Xalqaro hamkorlik



## QADIM TARIXGA EGA SIVILIZATSIYALAR

## O'ZARO HURMAT RUHIDAGI MUNOSABATLARDA YANGI SAHIFA OCHMOQDA



**Obid HAKIMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi  
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar  
markazi direktori

## Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Xitoy bilan munosabatlarda yangi davr boshlandi. Xitoy O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib 1991-yil 27-dekabrda tan oldi, mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar esa 1992-yil 2-yanvarda o'rnatilgan.

O'zbekiston — Xitoy munosabatlari, ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda islohotlarning yangi bosqichi boshlanishi bilan jadal rivojlana boshladi. Ikki davlat tashqi siyosiy muassasalari rahbarlari darajasida hukumatlararo qo'mita, parlamentlararo guruh tuzildi va strategik muloqot yo'lga qo'yildi. Parlamentlaro hamkorlik faollashdi, faol gumanitar va mintaqalararo almashinuvlar amalga oshirilmogda. Toshkent va Samarqandda Konfutsey institutlari faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini amalga oshirish doirasida turli dasturlarda faol ishtirok etmoqda. 22-yanvarda Urumchi shahrida birinchi O'zbekiston — Xitoy mintaqalararo forumi sanoat ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Iqtisodiy munosabatlar dinamikasiga alohida to'xtalib o'tish zarur. Boisi, keyingi yillarda O'zbekistonga kiritilgan Xitoy investitsiyasi hajmi 5 barobar, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni esa 3 barobar ko'paydi. Xususan, 2017-2022-yillarda ikki tomonlama savdoning umumiy hajmi 1,85 barobar oshib, 4,75 milliard dollardan (2017-yilda) 8,94 milliard dollarga (2022-yilda) yetdi. 2023-yilda tovar ayirboshlash hajmi 50 foiz oshib, 14 milliard dollarni tashkil etdi. Shu o'rinda, Xitoydan import qilinayotgan mahsulotlar orasida mashina va uskunalar, transport vositalari, plastmassa, kauchuk, metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, ya'ni o'zbek iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish uchun zarur mahsulotlar ko'pligini alohida ta'kidlash joiz.

Xitoy O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni bo'yicha ham yetakchi uchlikka kiradi. 2017-yildan 2022-yil oxirigacha Xitoyning neft-gaz va kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, yengil sanoatga kiritgan investitsiyasi 11 milliard dollardan ziyodini tashkil etdi. Bugun mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 2125 ta korxonaga faoliyat yuritmoqda. Ulardan 605 tasi 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida tashkil etilgan. Xitoyning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi umumiy hajmi esa bugungacha qadar 14 milliard dollardan oshdi. Hozir Xitoyning Huawei, ZTE, Wenzhou Jinsheng Trading, Peng Sheng QK, Sinotruk, Heng Bang Textile Central Asia va boshqa yirik kompaniyalari yurimizda faoliyat yuritmoqda.

## MAHSULDOR MUZOKARALAR

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Raisi Si Zinpin

o'rtasidagi muzokaralar yanvardagi tashrifda markaziy o'rinni egalladi.

Davlat rahbarlari keyingi yillarda ikki tomonlama munosabatlarda yuqori sur'atga erishilganini ta'kidladilar. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, o'tgan yil yakunlari bo'yicha tovar ayirboshlash qiymati 14 milliard dollarga yetdi. Yaqin istiqbolida bu raqamni 20 milliard dollarga yetkazish uchun yetarli imkoniyat mavjudligi to'g'risida yakdil fikr bildirildi.

Infratuzilma, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo'jaligi va "yashil" energetikada texnologiyalar transferi sohalarida hamkorlik dasturlarini tayyorlash va qabul qilishga kelishib olindi. Shu ma'noda, o'tgan yil oxirida O'zbekistonda Xitoy kompaniyalari ishtirokida quvvati 1000 megavattlik ikkita yangi quyosh elektr stansiyasi foydalanishga topshirilgani qayd etildi.

Xitoyning yetakchi banklari va "Ipak yo'li" fondi, shuningdek, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan samarali moliyaviy-texnik hamkorlikning bugungi darajasiga yuqori baho berildi. Davlatimiz rahbari investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy vositalarini kengaytirish, jumladan, qo'shma platforma yaratish borasida kelishuvlarga erishilganini, shuningdek, Xitoy Eksimbankining Toshkent shahrida Markaziy Osiyo uchun mintaqaviy ofis o'chib haqidagi qarorini qo'llab-quvvatladi. O'zbekiston Prezidenti xitoylik hamkorlarni mamlakatimizdagi davlat korxonalarini va banklarni xususiy lashtirish jarayonida faol ishtirok etishga chaqirdi.

Yetakchilar mintaqalararo almashinuvlar faollashganini olqishladi. Bu boradagi hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston va Xitoy hududlari kengashini tuzishga kelishib oldilar. Ta'lim va turizm sohasidagi hamkorlikni faollashtirish, o'zaro madaniyat kunlarini o'tkazish amaliyotini davom ettirish zarurligi qayd etildi. Birinchi qo'shma Yashlar innovatsiya forumini o'tkazish taklif qilindi.

"Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida transmintaqaviy transport va tranzit ko'prigining muhim tarkibiy qismi bo'lgan "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'lini qurish bo'yicha amaliy ishlarni tez muddatda boshlash muhim ekani ta'kidlandi. Tomonlar rejalashtirilgan barcha tadbirlar va ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida hukumatlararo qo'mita va uning barcha kichik qo'mitalari yig'ilishlarini joriy yilning birinchi yarmida o'tkazishga kelishib oldi.

SHENCHJENDAGI  
BIZNES-FORUM

Prezidentimiz davlat tashrifi davomida Xitoyning innovatsiyalar poxtaxti hisoblangan Shenchjen shahrida o'tgan qo'shma investitsiya forumida ishtirok etdi. Tadbirda XRR yirik biznesining 600 dan ziyod vakili qatnashgani uning muhimlik darajasidan dalolat beradi, albatta. Davlatimiz rahbari forumda o'zbek-

monlama asoslangan. Zero, "qadim tarixga ega buyuk sivilizatsiyalar doim bir-biriga o'xshaydi, bir-birini tushunadi va ruhan bir-biriga yaqindir". O'zbekiston va Xitoy xalqlarining madaniyati va qadriyatlari o'xshash. Biz davlat suvereniteti, hududiy yaxlitlik, yaxshi o'g'irchilik tamoyillariga amal qilish, o'zimiz tanlagan taraqqiyot yo'limizni va madaniy-sivilizatsiyaviy

Qishloq xo'jaligini barqaror yuritishda Xitoyning ilg'or texnologiyalarini jalb qilish hamda yerni qayta tiklash va tuzga chidamli o'simliklar ekish bo'yicha ilmiy yondashuvlarni joriy qilish yo'nalishi alohida qayd etildi. Shuningdek, "yashil" energetikada strategik sheriklikni ilgari surish va Xitoy kompaniyalarining xususiy lashtirish dasturida ishtirok etishi ham muhim yo'nalishlar sirasiga kiradi. Biznes-forum yakunida energetika, neft-gaz, tog'-kon, elektrotexnika, yengil sanoat, mashinasozlik, infratuzilmani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, ta'lim, transport va logistika sohalarida loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hujjatlarini katta to'plamni imzolandi. Yakunda O'zbekiston Prezidenti ushbu Guandun investitsiya forumini har yili tashkil etish tashabbusini ilgari surib, uning navbatdagi yig'ilishini kelgusi yilda Samarqand shahrida o'tkazishni taklif qildi.

Mazkur tashrif doirasida nafaqat O'zbekiston uchun muhim kelishuvlarga erishildi, balki Xitoy bilan munosabatlarning barcha yo'nalishi bo'yicha hamkorlik ko'lami yanada kengaydi.

## TAMADDUNLAR YAQINLIGI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Jenmin jibao" gazetasida e'lon qilingan "O'zbekiston — Xitoy: ming yillar bardavom do'stlik va hamkorlik" sarlavhali maqolasida "Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar barqaror yuqori sur'atni namoyish etib, o'z tarixidagi eng namunalari davmi boshidan kechirmogda. O'ylaymanki, bu har to-

jamiyatni tubdan modernizatsiya qilish, shu bilan birga, tashqaridan ta'sir ko'rsatishga urinishlarga yo'l bermaslikni o'z ichiga olgan bir-biriga o'xshash siyosatni izchil amalga oshirmogda. Xitoy bilan bu o'xshashlikni

qilindi. Bu jarayonda O'zbekiston uchun tarixan an'anaviy bo'lgan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi — sobiq ittifoq davrida e'tiborsiz qoldirilgan mahalla tizimidan foydalanildi.

**Infratuzilma, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo'jaligi va "yashil" energetikada texnologiyalar transferi sohalarida hamkorlik dasturlarini tayyorlash va qabul qilishga kelishib olindi. Shu ma'noda, o'tgan yil oxirida O'zbekistonda Xitoy kompaniyalari ishtirokida quvvati 1000 megavattlik ikkita yangi quyosh elektr stansiyasi foydalanishga topshirilgani qayd etildi.**

mustaqil O'zbekistonning butun tarixida, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy sohada yaqqol kuza-tish mumkin.

Xitoyda xususiy mulk va bozor iqtisodiyotini tan olishga qaratilgan islohotlar Den Syaopin tomonidan 1978-yilda boshlangan va hozirgacha davom etayotgan bo'lsa, O'zbekistonda mamlakat mustaqillikka erishganidan keyin, 1994-yil yanvarda "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmon qabul qilingan edi. Ushbu hujjat ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tishni boshlab berdi. Shu tariqa xususiy tashabbus erkinlashtirilib, iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirishning muhim omiliga aylandi.

Mahalla mustaqillikning dastlabki kunlaridanog fuqarolik jamiyati va fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tayanchi sifatida e'tirof etildi. 2021-yildan boshlab esa mazkur institutning imkoniyati joylarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mahalliy siyosatni yuritish uchun asos qilib olindi. Shuningdek, bu jarayonda Xitoy tajribasining ko'plab o'ziga xos jihatlardan ham foydalanildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar yordamida bir yilda 1 million kishini kambag'allikdan chiqarish va O'zbekistonda kambag'allik darajasini 2021-yildagi 17 foizdan 2022-yilda 14 foizga kamaytirishga erishildi.

Shu tariqa O'zbekiston va Xitoyning ijtimoiy siyosatida ham katta o'xshashliklar kuzatilmoqda. Bu xalqlarimizning ildizida ijtimoiy hamkorlik, o'zaro yordam va kuchli ijtimoiy adolat hissi yotuvchi milliy ma'naviy qadriyatlar juda o'xshashligi bilan izohlanadi. Mamlakatlarimizdagi ijtimoiy islohotlar aholi kutilmalariga mos kelishiga quyidagi holat yaqqol misol bo'la oladi. Nukus shahri-ning G'arezitlik mahallasidagi hokim yordamchisi Roza Zaitulboeva "Iqtisodiy shahar" jurnaliga bergan intervyusida maqsadi "xud-di xitoyliklari singari "Mening mahallamda kambag'al yo'q", degan jumlaning zarhali harflar bilan mahallaning eng ko'rinarli joyiga yozib qo'yish" ekanini aytgan edi.

ISLOHOTLARNING  
MUSHTARAKLIGI VA ISTIQBOLI

Xitoy iqtisodiy islohotlarining yuqori samaradorligi butun dunyoda allaqachon e'tirof etilgan. Ushbu davlat yangilanishlar orqali jahonda iqtisodiy o'sishning deyarli uchdan bir qismini ta'minlagan holda global iqtisodiy o'sish generatoriga aylanib ulgurdi. 2010-yildan buyon dunyodagi ikkinchi iqtisodiyot mavqeiini saqlab turibdi. Iqtisodiyotning hajmi 2000-yildan buyog'iga 15 barobar o'sdi, uning jahon iqtisodiyotidagi ulushi 3,6 foizdan 18 foizga, aholi jon boshiga YIM esa 13,3 barobar oshdi. 2023-yilda iqtisodiyotning o'sishi 5,4 foiz bo'lishi, mamlakat YIM esa 19,4 trillion dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa dunyo YIMning 18,4 foizini tashkil qiladi.

Bu ko'rsatkich hali yanada o'sishi mumkin. Tarixdan ma'lumki, Uyg'onish davri — Min sulolasi hukm surgan paytlar (1368-1644-yillar)da Xitoy iqtisodiyoti butun sayyoradan sezilarli darajada oldinda bo'lgan. XV-XVI asrlarda jahon iqtisodiyotining 25-30 foizi Xitoy iqtisodiyoti ulushiga to'g'ri kelgan, ammo tarixiy kataklizmlar, Yevropa davlatlarining dengiz ekspansiyasi va ikki jahon urushidan keyin bu ulush 5 foizdan pastlab ketdi.

Ushbu tarixiy taqqoslashlar fonida Xitoyning keyingi o'n yilliklardagi iqtisodiy va ijtimoiy yutuqlari nafaqat amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi va ularning Xitoy milliy xususiyatlariga va mentalitetiga mos kelishidan, balki zamonaviy Xitoyning ulkan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish salohiyatidan dalolat beradi.

Shu o'rinda, O'zbekiston va Xitoy islohotlaridagi yondashuv o'xshashligini yana bir bor ta'kidlash joiz. O'zbekistondagi bu o'zgarishlar mamlakatimizning mavjud

rivojlanish, tabiiy, sanoat va inson resurslari salohiyatini to'liq ochib berish yo'lidan ishonch bilan ketayotganini anglatadi. Hamkorlikdagi yondashuvlar o'xshashligiga tayangan holda Xitoy tajribasidan foydalanish O'zbekistondagi islohotlar samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shmoqda.

XITOI INTEGRATSIYA OMILI  
SIFATIDA

Xitoy bilan hamkorlik istiqbollari haqida gapira turib, yana bir jihatti yoddan chiqar-maslik zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yuqorida nomi qayd etilgan maqolasida ta'kidlaganidek: "Rais Si Zinpinning taraqqiyot, xavfsizlik va sivilizatsiyalararo muloqot borasidagi global tashabbuslari umumbashariy muammolarni hal etish hamda yanada barqaror va inkluziv kelajakka o'tishni jadallashtirishga salmoqli hissa qo'shmoqda".

Si Zinpin BRIKSning 2023-yil avgustda Yoxannesburgda bo'lib o'tgan 15-sammitida aytgani kabi Xitoy o'zini Global Janubning bir qismi deb biladi. Shuningdek, u rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan "Bir makon, bir yo'l", "Global taraqqiyot tashabbusi", "Global xavfsizlik tashabbusi" va "Global sivilizatsiya tashabbusi" loyiha va tashabbuslari doirasida Global Janub bilan hamkorlik qiladi.

Boston universitetining Global taraqqiyot siyosati markazi ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyning ikkita asosiy davlat banki — Xitoy Eksport-import banki va Xitoy taraqqiyot banki 2008-2021-yillarda rivojlanishni moliyalashtirish uchun 100 ta davlatga 498 milliard dollar taqdim etgan. Bu xuddi shu davrda Jahon banki kreditlash hajmining qariyb 80 foizini tashkil etadi. Xalqaro ekspertlar tahliliga ko'ra, so'nggi yigirma yilda Xitoy xalqaro taraqqiyotni moliyalashtirish uchun kamida 843 milliard dollar ajratgan. Bu yiliga qariyb 85 milliard dollar, degani.

Xitoyning ushbu global tashabbuslari orasida O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari faol ishtirok etayotgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi alohida o'rin tutadi. Amerika tadbirkorlik instituti ma'lumotlariga ko'ra, agar 2017-yilda Xitoyning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarining chorakdan kamrog'i "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi bilan bog'liq bo'lgan mamlakatlarga yo'naltirilgan bo'lsa, 2022-yilda ularning ulushi 60 foizgacha oshdi. Bu esa keyingi yillarda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi sarmoyaviy hamkorlikning jadal kengayishi bilan bog'liq. Tabiiyki, bunday hamkorlik O'zbekistonning investitsiya jalb qilish, iqtisodiyotini rivojlantirish va modernizatsiyalash borasidagi istiqbolini sezilarli darajada kengaytiradi.

O'zbek iqtisodiyotining istiqboli va uni jahon iqtisodiyotiga integratsiya qilish nuqtayi nazaridan Prezidentimizning maqolasida qayd etilgan quyidagi omil yanada muhim ahamiyatga ega: "Biz uchun "Makon va yo'l" shunchaki infratuzilmaviy loyiha emas. Tashabbusni birgalikda amalga oshirish tufayli mintaqamiz global o'zaro bog'liqlikning muhim bo'g'iniga aylanib, transport jihatidan yiroqlikni yengib o'tmoqda... Xitoyning strategik roli tufayli Markaziy Osiyo dunyo bilan keng hamkorlikka ochilmoqda, mintaqaning geografik kamchiliklarini o'zining afzalliklariga aylantirmogda. Bu esa, o'z navbatida, umumiy barqarorlik va izchil taraqqiyotning muhim shartidir".

Xulosa qilib aytganda, Xitoy bilan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi hamkorlik nafaqat O'zbekistonga, balki Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga ham xalqaro mehnat taqsimotida qo'shimcha qiymat zanjiriga jadal va samarali qo'shilish, transport xarajatini kamaytirish, raqobatbardoshlik afzalliklari va resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu esa mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonida eng muhim omildir.

**Xitoy bilan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi hamkorlik nafaqat O'zbekistonga, balki Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga ham xalqaro mehnat taqsimotida qo'shimcha qiymat zanjiriga jadal va samarali qo'shilish, transport xarajatini kamaytirish, raqobatbardoshlik afzalliklari va resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.**

xitoy aloqalarining ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi.

Infratuzilmani rivojlantirish loyihalariga Xitoy moliya institutlari mablag'ini jalb qilishning soddallashtirilgan tartibini joriy qilgan holda, ushbu mamlakat kompaniyalari bilan sheriklikni kengaytirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish kabilar shular jumlasidan.

o'zligimizni hurmat qilish kabi mamlakatlarimizning tub manfaatlariga daxldor masalalarda bir-birimizni qat'iy qo'llab-quvvatlaymiz", deb yozgan edi.

Haqiqatan, shunday! Hozir boy tarixga ega ikki mamlakat o'z kuchiga tayanish, tarixiy taraqqiyotning tadjiriyiligini saqlab qolish, an'anaviy qadriyatlarini innovatsion rivojlanish bilan uyg'unlashtirish, iqtisodiyot va





## Tahlil va taqqos

Abdurauf QORJOVOV,  
iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

## 140 ta tayyor loyiha

Respublikamizda xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda, sanoatning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha 140 ta tayyor loyiha ishlab chiqilgan. Ushbu loyihalarning jami qiymati 10 milliard dollarga teng bo'lib, ularda 60 mingta ish o'rni yaratish, yiliga 5 milliard dollarlik mahsulot tayyorlash hamda 2,5 milliard dollarlik eksport qilish ko'zda tutilgan.

Mazkur loyihalar elektron platformaga qo'yilib, tadbirkorlarga ochiq-oshkora shartlar asosida taklif etiladi. Ularga joyi ham, mablag'i ham, infratuzilmasi ham hal qilib beriladi.

Prezidentimiz o'tgan yili tadbirkorlar bilan ochiq mulqotda mazkur yangi tashabbusni ilgari surdi. "140 ta ilg'or sanoat korxonasi" dasturini amalga oshirish va "Sanoat ipotekasi" tizimini joriy qilish loyihasi davlatimiz rahbarining o'tgan yil 4-sentabrda Vazirlar Mahkamasining 26-dekabrda qarorlari asosida huquqiy maqom kasb etdi.

Hujjatlar bilan dastur doirasida tadbirkorlik subyektlariga ochiq tanlov asosida taklif qilinadigan yirik sanoat loyihalarining taqsimoti, shuningdek, ularni amalga oshiruvchi tashabbuskor tadbirkorlarni ochiq tanlov asosida tanlab olish va moliyalashtirish tasdiqlandi.

— Yo'nalishlar bo'yicha elektrotexnika, to'qimachilik, qurilish materiallari, polimer-kimyoviy, oziq-ovqat sanoatlaridan

20 tadan, charm-poyabzal, mashinasozlik, zargarlik, mebelsozlik sohalaridan 10 tadan loyiha kiritilgan, — deydi iqtisod fanlari nomzodi, ekspert Ro'zimboy Qurbonov. — Ularni ochiq tanlov asosida tanlashning asosiy mezonlari sifatida kamida 100 ta yangi ish o'rni yaratilishi, ishlab chiqariladigan mahsulotning ichki bozordagi

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan yirik sanoat loyihalarining eng yaxshilariga ochiq tanlov asosida investitsiya jalb qilinadi, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari esa hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadi. G'olib bo'lgan tashabbuskor tadbirkorlarga mazkur vazirlik hamda uning tizim tashkilotlari loyihalarning biznes-rejasi va texnik-uslubiy jihatdan yordam beradi. Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan xorijiy valyutada yillik 4 foiz va milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 10 yil muddatgacha, shundan 3 yilgacha imtiyozli davr bilan bir loyiha qiymatining 25 foizi, biroq 10 million AQSH dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda kreditlar ajratiladi.

2024-yil 1-yanvardan "Sanoat ipotekasi" tizimi joriy etila boshlandi. Uning doirasida tadbirkorlik subyektlariga yer uchastkalari (ishlab chiqarish maydonlari) qurilish uchun tegishli ruxsatnoma va loyiha hujjatlari rasmiylashtirilgan holda "tayyor biznes" shaklida auktsion savdolariga chiqariladi. Ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida bino va inshootlar xarid qilish uchun tijorat banklariga 7 yil muddatga, 2 yilgacha imtiyozli davr bilan milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada kreditlar ajratiladi. Bunda tijorat bankining marjasi 4 foiz miqdorida belgilanadi. Xarid qilingan bino-inshootlarning kamida 50 foiz maydonidan bevosita ishlab chiqarish faoliyati uchun foydalanish sharti qo'yilgan.

Tez orada Vazirlar Mahkamasini tomonidan sanoat ipotekasi asosida xarid qilingan bino-inshootlarning kamida 50 foiz maydonidan bevosita ishlab chiqarish uchun foydalanish



import ulushi 50 foizdan yuqori va texnologik asbob-uskunalarining yangi avlodga mansub bo'lishi, loyiha amalga oshiriladigan tumaning toifasidan kelib chiqib, unga afzallik berilishi (toifasi past tumanlarga yuqori afzallik taqdim qilinishi), xalqaro brendlar bilan hamkorlik shartnomasiga asosan joriy etilishiga ham e'tibor qaratilishi belgilangan.

va boshqa mezonlar bo'yicha tartib tasdiqlanadi.

Ko'rinib turibdiki, kredit ajratilishida maqsad va manzil aniq, samaradorlikka erishish uchun ham mutasaddilarning mas'uliyati belgilangan. Eng muhimi, bu kreditlar auktsion savdolariga chiqariladi, g'oliblik uchun kurash ketadi va g'oliblar hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

## KREDIT FOIZ STAVKALARI NEGA YUQORI?

## IMTIYOZ MAQSADLI VA MANZILLI BO'LSAGINA, SAMARA KELTIRADI

## Resurs yo'qligi sababli kredit foizi yuqorimi?

Sohani isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida so'nggi uch yilda banklar kapitali 1,8 barobar, yillik kredit ajratish hajmi 2 barobar ko'paydi. 4 ta bank ilk bor "yevrobond" chiqarib, xalqaro kapital bozorlaridan 1 milliard dollar resurs olib keldi. 13 ta yangi xususiy bank tashkil etildi. Vengriya, Qozog'iston va Gruziyaning nufuzli banklari yurtimizda faoliyat boshladi. Onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobar oshdi.

Prezidentimiz raisligida 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida bank tizimi barqarorligini ta'minlash hamda kredit foiz stavkalarini tushirish masalalari atroflicha tahlil etildi.

Ayni paytda Markaziy bankning asosiy stavkasi 14 foizni tashkil etadi. Bozor mexanizmlari asosida kredit stavkalarini kamida 2-3 foizga tushirish mumkin.

Yig'ilishda banklar resurs yo'qligi sababli kredit foizi yuqori, deyshiga o'rganib

olgani ta'kidlandi. Vaholanki, muammoli qarzlarni undirishning o'zidan 25 trillion so'mlik kreditga resurs topsa bo'ladi. Masalan, Jizzax, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida muammoli kreditlar ulushi 10 foizga yetgan.

Tarmoq rahbarlari, hokimlar 9 trillion so'mlik kreditlar hisobiga tashkil etilgan va Biznes-ombudsman kredit olgan korxonalarining to'liq quvvatda ishlab ketishiga yordam beradi. Hokimlar, banklar kredit berishdan oldin loyiha qancha ish o'rni yaratishi, byudjetga qancha tushum bo'lishini hisob-kitob qilish tizimiga o'tadi va samarasiga shaxsan javob beradi.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklarining jami kredit portfli 2023-yil davomida 81,4 trillion so'mga o'sib, yil yakunida 471,4 trillion so'mni tashkil qilgan. Muammoli kreditlar miqdori yil boshidagi ko'rsatkichga (13,99

trillion so'm) nisbatan 2,63 trillion so'mga o'sib, 16,62 trillion so'mdan ortgan.

Prezidentimiz raisligida 18-yanvar kuni bo'lib o'tgan 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishida qayd etilishicha, eksportchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida kreditlashga 200 million dollar resurs berilgan. Bundan tashqari, joriy yilda mazkur yo'nalishga 800 milliard so'm mablag' ajratilmoqda. Shunga qaramay, Eksportni rag'batlantirish agentligi tarmoq va hududlar rahbarlari bilan birgalikda bu mablag'lardan samarali foydalanishini ta'minlay olmayotgani ta'kidlandi.

Masalan, eksport oldi moliyalashtirish uchun imtiyozli shartlarda ajratilgan har 1 dollarga o'rta 5 dollarlik eksport to'g'ri kelyapti. Lekin elektrotexnika bu ko'rsatkich 2,5 dollar, qishloq xo'jaligi va farmatsevtika sohalarida 3 dollarni tashkil qiladi. Ayrim korxonalarining eksport hajmi olingan kreditdan kam bo'lgan bo'lsa, ba'zilar kredit olib, umuman eksport qilmagan. Shuningdek, 2023-yili xalqaro standart joriy qilish va sertifikat olish uchun 4,5 milliard so'm mablag' berilgan 31 ta korxonaga eksport bilan shug'ullanmagan.

Yig'ilishda Eksportni rag'batlantirish agentligi eksportchi korxonalariga haqiqiy ko'makchi bo'lish o'rni davlatdan berilgan tayyor pulni yo'naltiradigan "buxgalter-kassir"ga aylanib qolganini tanqid qilindi. Endilikda eksportni qo'llab-quvvatlash tizimi o'zgarishi belgilandi. Jahon savdo tashkiloti talablari asosida Eksportni rag'batlantirish agentligi Savdoni rivojlantirish kompaniyasi sifatida qayta tashkil etiladi.

Savdoni rivojlantirish kompaniyasi beradigan subsidiya, kredit va yordamlar yangi tadbirkorlik reytingi asosida, eng avvalo, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot bilan yangi bozorlarga chiqayotgan eksportchilarga ajratiladi. Joriy yil 1-martdan ushbu tizimni joriy qilishga kirishiladi.

Huquqshunolar ta'biri bilan aytganda, qarzi oldi-berdisi azal-azaldan insonlar o'rtasida shakllangan fuqarolik huquqiy munosabatlari sirasiga kiradi. Olgan qarzni qaytarishni paysalga solib, uni uzish o'rniga ming xil hiyla-nayrang o'yab topayotgan kimsalar ko'payib borayotgani, ba'zi bir mulkchilik subyektlari tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy yordamdan foydalanishdan keyin majburiyatini bajarish fursati yetgan paytda mas'uliyatni unutilib qo'yayotgani afsuslanarli holatlardir. Ular "olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim" qabilida ish tutadi.

## "Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim"mi?

Yaqin kunlarda ommaviy axborot vositalarida chop etilgan quyidagi xabarlar ham buni tasdiqlab turibdi.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Qorako'l tuman bo'limi tomonidan AT "Xalq banki" Buxoro viloyati filialining murojaatiga asosan o'tkazilgan tergovga qadar tekshiruvda "G.Ch." fermer xo'jaligi mas'ul shaxslari va boshqalar chorvachilikni rivojlantirish uchun ajratilgan 423 ming 560 AQSH dollari miqdoridagi kreditni soxta hujjatlar rasmiylashtirish orqali garov ta'minotisiz qoldirib, ushbu mablag'larni o'zlashtirish yo'li bilan talon-taroj qilganliklari aniqlangan.



Departamentning Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar bo'limi tomonidan o'tkazilgan tergovga qadar tekshiruvda "K.T." MCHJ rahbari S.Q. va boshqalar o'zaro til birlashtirib, 10 nafar fuqaroga issiqxonaga qurish va tikuvchilik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun ajratilgan 457 million so'm kreditni rasmiy hujjatlarga soxta ma'lumotlar kiritish orqali o'zlashtirgan ma'lum bo'lgan.

Mazkur holatlar yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalarini bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, "T.Y.E." MCHJ Eksportni rag'batlantirish agentligining resursi hisobidan AT "Aloqabank" Surxondaryo filialidan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda aylanma mablag'ni to'ldirish" maqsadida 12 oy muddatga 4 foiz ustama to'lash sharti bilan 220 ming dollar kredit olgan. Lekin qishloq xo'jalik mahsulotlarini xorijga eksport qilmasdan, hujjatlarini qalbakilashtirish jinoyatini sodir qilgan. Bu holatga ham qonuniy baho berilgan.

## Muammolarning oldini olishi mumkin bo'lgan choralar

Bu savolga javob izlash jarayonida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2022-yil 22-iyul kuni bo'lib o'tgan majlisida Bosh vazir o'rinbosari Jamshid Qo'chqorov ma'ruzasida bildirilgan fikrlar e'tiborni tortadi.

"Buning uchun kredit berish jarayonini ko'rib chiqish kerak. Kredit berish jarayonini ko'rib chiqish bu, birinchi navbatda, imtiyozli kredit bo'lmaguncha kerak, degani. Qachonki imtiyozli kredit bo'lmasa, shunda kredit berish tartibiga tushadi. Ikkinchidan, banklarimizni xususiy-lashtirishimiz kerak. Banklar xususiy bo'lsa, ularning egalari dividend orqali daromadini oladi va talon-taroj masalalariga ham o'zi qaraydi", degan edi Jamshid Qo'chqorov.

2022-yilning 20-yanvarida o'tkazilgan boshqaruv yig'ilishida Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmurotov ham imtiyozli kreditlar masalasida o'z fikrini bildirgan edi.

"Qayd etish kerakki, inflyatsion targetlash bo'yicha Prezident farmonida 2021-yildan barcha kreditlarni bozor foizlarida berish mo'ljallangan edi. Afsuski, pandemiya sharoiti bu holatni kechiktirishni taqozo qildi.

Imtiyozli kreditlar ulushiga qaraydigan bo'lsak, ular jami kreditlar portfelida kamayib boryapti. 2021-yil bo'yicha bu ulush 32 foizni tashkil etadi. Berilgan kreditlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 2021-yil 24,6 foiz kredit imtiyozli shartlarda berilgan. Agar pandemiya bilan

Markaziy bank qarzi yuki bo'yicha talabda istisnolar ham bo'lishini ma'lum qildi. Unga ko'ra, bank kredit portfelining 15 foizigacha bo'lgan qismigacha qarz oluvchining qarzi yuki ko'rsatkichini inobatga olmasdan kredit ajratishga ruxsat beriladi.

bog'liq vaziyat bo'lmaganida, biz allaqachon imtiyozli kreditlar ajratish siyosatidan voz kechgan bo'lardik".

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rahbari o'tgan yil 15-noyabr kuni Olmaota shahrida XI Qozog'iston moliyachilar kongressida so'zlagan nutqida pul-kredit siyosatining o'ziga xos jihat va muammolarini hal qilish choralari haqida to'xtalib o'tdi.

"Shuni ta'kidlashim kerakki, biz pul-kredit siyosatimiz harakatlarida zaif o'zgarishlarni ko'rmoqdamiz. Bu, birinchi navbatda, qoniqtirilmagan talab va agentlarning mantiqsiz xatti-harakatlari hisoblanadi. Bu cheklangan daromaddek ko'rinadi, lekin ayni paytda hatto yuqori foiz stavkalari sharoitida ham kreditga katta qiziqish bor. Qo'shimcha talabni oshirishga qaratilgan bunday harakatlarni cheklash uchun makroprudensial choralar ko'rinishimiz kerak. Biz nosog'lom moliyalashtirishni cheklaydigan va moliyaviy barqarorlik uchun xavflarni kamaytiradigan makroprudensial choralar bilan ishlaymiz kerak. Iqtisodiyot so'nggi uch yilda yuqori byudjet taqchilligi sharoitida hayotga moslashdi, bu esa pul-kredit siyosatiga yuk bo'ldi. Va shunday sharoitda biz fiskal konsolidatsiya zarurligi haqidagi pozitsiyaga sodiq qolishda davom etamiz va iqtisodiy faollik o'sib borayotgan sharoitda kelishilgan soliq-byudjet siyosatini joriy etish uchun pul-kredit siyosatining ovozini bosqichma-bosqich oshirishimiz zarur", dedi Mamarizo Nurmurotov.

Markaziy bank shu yil boshida mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ortiqcha qarz yukining oldini olish maqsadida bir qator makroprudensial va prudensial choralar ko'rganini (odatda mazkur choralar kreditlash sur'atining iqtisodiy o'sish sur'atlaridan tezlashib ketganda, shuningdek, valyutaviy va boshqa xatarlarning katta qismi tizimli ahamiyatga ega banklarda jamlanishining oldini

olish maqsadlarida qo'llaniladi), bundan keyin ham davom ettirishni rejalashtirayotganini ma'lum qildi. Xususan, qarzi yuki bo'yicha talablarni barcha kreditlar kesimida joriy etishni mo'ljallamoqda.

Endilikda kredit foizi o'rni qarz oluvchining qarzi yuki darajasi (DSTI) va kreditning garovga (ta'minot) nisbatiga asoslangan talablar joriy etiladi. Bu talab O'zbekistonda hozirgacha faqat mikroqarzarlar uchun amal qilib kelgan va 50 foizni tashkil etgan. 2024-yil 1-iyuldan barcha kreditlarni berishda (mikroqarzarlar uchun ham) qarz beruvchilarga mijozlarining qarzi yuki 60 foizdan oshib ketmasligi talabi qo'yiladi. 2025-yil 1-yanvardan esa bu ko'rsatkich 50 foizgacha pasaytiriladi.

Bundan tashqari, Markaziy bank qarzi yuki bo'yicha talabda istisnolar ham bo'lishini ma'lum qildi. Unga ko'ra, bank kredit portfelining 15 foizigacha bo'lgan qismigacha qarz oluvchining qarzi yuki ko'rsatkichini inobatga olmasdan kredit ajratishga ruxsat beriladi. Ruxsat etilgan miqdor qarzi yuki bo'yicha talabni inobatga olmasdan ajratilgan kreditlar sonini barcha kreditlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Muammoli kreditlarni boshqarish sohasidagi xorijiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, samaradorlik bo'yicha eng ma'qul strategiya — qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan qarzi oluvchining moliyaviy tiklanishiga qaratilgan muammoli kreditni boshqarish strategiyasi bo'lib, u mijoz bilan strategik sheriklik doirasida amalga oshiriladi.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## Menda taklif bor

## MILLAT QIYOFASI

## uning madaniyatida namoyon bo'ladi

Abdurahob SAXIYEV,  
O'zbekiston davlat  
konservatoriyasi dotsenti

Prezidentimizning o'tgan yil adog'ida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan ma'ruzasi xalqimiz ziyolilari uchun muhim dasturilamalga aylandi. Uchrashuvda ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, san'at va adabiyot sohalari rivoji bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Jumladan, mahalliy hokimliklarning madaniy-ma'rifiy ishlarda mas'uliyatini oshirish, korxon va muassasalarda "Teatr kuni"ni belgilash, hududlarda zarur sharoit bo'lgan madaniyat markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish masalasi kun tartibiga ko'tarildi. Shuningdek, maqom va baxshchilik san'atini ilmiy asosda o'rganish, musiqa va raqs san'atini qo'llab-quvvatlash, muzeylar faoliyatini takomillashtirish, kino, tasviriy hamda amaliy san'at turlari rivojiga qaratilgan alohida dasturlar ishlab chiqishga oid tavsiyalar barchamizning ko'nglimizdagi gaplar bo'ldi. Ayniqsa, jamiyatda tinchlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashda ziyolilar yanada faol va ma'naviy fazilatlar bilan boshqalarga o'rnatilgan muhim huquqiy hujjatlar qabul qilindi, milliy madaniyatni yanada rivojlantirishda yangi tarixni yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham boshqa sohalar qatori ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qator ustuvor maqsadlar belgilangan. Jumladan, o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, milliy kinematografiya, teatr va sirk san'atini har tomonlama rivojlantirish, milliy san'atimizni targ'ib etish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlarini yuksaltirish kabi masalalar belgilangan.

Strategiyaning madaniyat sohasi rivojiga qaratilgan maqsadlari doirasida madaniyat, san'at va ta'lim muassasalarini milliy musiqa cholg'ulari bilan ta'minlash orqali professional va havaskorlik san'ati faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda 324 ta bolalar musiqa va san'at maktabi hamda 826 ta madaniyat markazini milliy musiqa cholg'ulari bilan 2023-2024-yillarda har yili 1150 komplektdan ta'minlash reja qilingan.

Bugungi kunda yurtimizda 70 ga yaqin sozgar usta-hunarmandlar maktabi faoliyat yuritayapti. Ular milliy cholg'ularimizning 22 turini yetkazib bermoqda. Biroq ta'lim muassasalari va ijodiy jamoalarni sifatli musiqa cholg'ulari bilan to'liq ta'minlashda buning o'zi yetarli emas.



Qolaversa, sozgar usta-hunarmandlar tomonidan bir nomdagi milliy cholg'ularning turlicha texnik ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqarilishi cholg'u sozlarida ijro etish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu muammoni oldini olish maqsadida milliy cholg'ular ishlab chiqarish sohasini ilmiy nuqtayi nazardan asosli musiqa cholg'ularing tembr xususiyatlari va ovoz tarovati sifatini taqsimlash kabi masalalar asoslangan usta hunarmandlar ishtirokida markazlashgan holda, innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Prezidentimizning yaqinda Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi jamiyatimizning turli sohalari qatori madaniyat va san'at yo'nalishlari rivojida ham yangi istiqbolarni ochadigan voqe'larga boy bo'ldi. Jumladan, Madaniyat vazirligi vakillari xitoy-

lik mutaxassislar bilan hamkorlikda yurtimizda musiqa cholg'ularini ishlab chiqarish hamda ta'mirlash yuzasidan kelishuv muzokaralarini olib bordi. Bu hamkorlik kelgusida milliy musiqiy cholg'u va sozlarimizni sifatli ishlab chiqarish, musiqiy ta'lim va madaniyat muassasalarining ushbu vositalarga ehtiyojini to'liq ta'minlash barobarida, milliy musiqiy asboblarni jahon miqyosida keng targ'ib etishda ham yaxshi samara beradi.

Strategiyada, shuningdek, o'zbek milliy musiqa san'atini dunyo bo'ylab ommalashtirish, jahon sahnalarida keng targ'ib qilish orqali mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini oshirishda konsert-tomosh muassasalari tomonidan namoyish etiladigan madaniy tadbirlar va festivallarga tomoshabinlarni jalb etish ko'zda tutilgan. 2025-yilgacha madaniyat va san'at sohasida iste'dodli va yuqori malakali ijodkorlarning 58 ta mahorat maktabini tashkil etish, musiqa va san'at, teatr va raqs tanlov hamda festivallarini o'tkazish kabi tadbirlar rejalashtirilgan.

Bu vazifalar ijrosini ta'minlashda yosh, tajribali ijodkorlarga yashash va ijod qilish uchun qulay sharoit yaratib berish ham muhim vazifadir. Yaqin kelajakda poytaxtda ijodkor yoshlar yashash joyi barpo etilsa, nur ustiga nur bo'ladi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular tomonidan aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish masalasiga ham alohida urg'u berilgan. Bu yo'nalishda joylarda qo'shiq, tasviriy va amaliy san'at, raqs, aktyorlik san'ati yo'nalishlarida to'garaklar tashkil etish, festivallar o'tkazish, aholining madaniy dam olishi barobarida, yoshlarning musiqa va san'atga qiziqishini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda ijodiy samara beradi, albatta. Shu maqsadda madaniyat markazlari tomonidan mahallalarda "Bir safdamiz" to'garaklari tashkil etilib, tuman

hujjat imzolandi, 5 ta oliy ta'lim muassasasi o'rtasida qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Mazkur qo'shma ta'lim dasturi asosida o'zbekistonlik 300 dan ortiq talaba Xitoyning ilg'or universitetlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, o'zbekistonlik yuzdan ortiq talaba uchun grant dasturlari tashkil etishga kelishildi.

O'zbekiston va Xitoy oliy ta'lim muassasalari hamkorligi to'g'risida Pekin deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiya doirasida ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida institutsional platforma yaratish, Xitoy — Markaziy Osiyo ta'lim hamkorligi modelini shakllantirish, akademik almashinuv dasturlarini yanada rivojlantirish, qo'shma tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirokida aniq fanlar, muhandislik, qishloq xo'jaligi, AKT, gumanitar fanlar, tibbiyot va farmatsevtikaga bag'ishlangan panel sessiyalar bo'lib o'tdi. Mazkur shu sessiyalarining muhim yo'nalishlaridan biri "Muhandislik, qishloq xo'jaligi va axborot texnologiyalari sohalarida hamkorlik" deb nomlanib, unda yurtimizning yetakchi soha universitetlari hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha taqdimotlari bilan qatnashdi va samarali kelishuvlarga erishildi.

Ta'lim forumida Farg'ona politexnika instituti Xitoyning ikkita oliy ta'lim muassasasi bilan o'zaro samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti, Shimoliy Xitoy elektr energetikasi universiteti vakillari bilan uchrashuvlarda ta-

Madaniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan keng ko'lamlis lohiyotlar faqat bugungi kun rivoji uchungina emas, kelajak taraqqiyotini belgilashda ham muhim omil hisoblanadi. Zero, millat qiyofasi uning madaniyatida namoyon bo'ladi.

ijodkorlarning mahorat maktablarini tashkil etish vazifasi belgilangan. Bu borada yosh iste'dodlarni ro'yobga chiqarishda tuman, shahar hokimliklari bilan birgalikda mahalla va ta'lim muassasalarida hamda madaniyat markazlarida zamonaviy "Ko'ngil bitiklari" nomli musiqali teatr-studiyalar tashkil etish ham yaxshi samara beradi.

Yurtimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan bunday ishlar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmay, yangi marralarga intilish ham muhimdir. Buning uchun barcha yo'nalishlarda zamonaviy fikrlash qobiliyati orqali sohada fundamental loyihalarni joriy etish, yosh mutaxassislar ilmiy va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga e'tiborni yanada kuchaytirish lozim.

Madaniyat va san'at sohasida innovatsiyalar haqida gap ketar ekan, yoshlarni badiiy va estetik jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladigan yangicha usullardan foydalanish, jumladan, bolalar musiqa va san'at maktablarining o'quv dasturiga qo'shimcha musiqiy kompozitsiya va improvizatsiya, "A kapella" san'ati, musiqiy elektron kutubxona va fonoteka, zamonaviy raqs guruhlari kabi yangicha yo'nalishlarni joriy etishning ayni vaqti keldi, deb hisoblaymiz. Hozir shu yo'nalishlarni chet davlatlarning musiqa va san'at ta'lim muassasalarida alohida dastur orqali o'qitish tizimi yo'lga qo'yilgan. Shu asosda kelajakda har bir viloyatda bittadan zamonaviy tipda innovatsion musiqa va san'at maktabi barpo etilsa, iqtidorli yoshlarning sohaga qiziqishini oshirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda yana bir imkoniyat yaratilgan bo'ladi.

Innovatsion musiqa va san'at maktablarida yoshlarga yangi, zamonaviy uslubiy va amaliy metodlar asosida dars berishga e'tibor qaratish lozim. Musiqa va san'at fanlaridan dars berish uchun tajribali mutaxassislarni jalb etish, elektron darsliklar va kreativ yondashuvlar asosida o'qitish mezonlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bolalar musiqa va san'at maktablari qoshida yosh iste'dodlarni ommaga targ'ib etish maqsadida joylarda "Bolalar filarmoniyasi"ni tuzish orqali yoshlarda katta sahnalarda ijro mahorati hamda ko'nikmasini oshirishda kerakli motivatsiya olish va tajriba almashishda ijodiy natijaga erishiladi.

Albatta, madaniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan keng ko'lamlis lohiyotlar faqat bugungi kun rivoji uchungina emas, kelajak taraqqiyotini belgilashda ham muhim omil hisoblanadi. Zero, millat qiyofasi uning madaniyatida namoyon bo'ladi.

## Istiqbolli loyihalar

## XALQARO INTEGRATSIYAGA ZAMIN BOR

## Gap u manfaatli va tizimli bo'lishida

O'ktam SALOMOV,

Farg'ona politexnika instituti rektori,  
texnika fanlari doktori

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlikning yangi davri boshlandi. Endi ikki davlat munosabatlari yuqori sheriklik darajasiga ko'tarilib, uni rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur amalga oshirilmoqda.



Avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik yanada kengaydi. Xitoy investitsiyalari hajmi besh barobar, hamkorlikdagi qo'shma korxonalar soni esa uch barobar ko'paydi. Xitoy kompaniyalari va moliyaviy institutlari ishtirokida yuqori texnologiyalar, muqobil energetika, kimyo, mashinasozlik, metallurgiya, elektrotexnika tarmoqlarida, shuningdek, infratuzilmalarni modernizatsiya

labalar va professor-o'qituvchilar almashinuvini, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish hamda qisqa va uzoq muddatli stajirovkalar, qo'shma ilmiy loyihalarni yo'lga qo'yish, ma'ruza o'qish, seminar, mahorat darslari tashkil etish, qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha ikki tomonlama hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Xitoyning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini joriy qilish borasida ham amaliy natijalarga erishildi. Xususan, Xitoyning Tianjin texnologiyalar universiteti hamda Tianjin xorijiy tillar (fanlar) universiteti bilan professor-o'qituvchilar va talabalar akademik almashinuvini, qisqa muddatli malaka oshirish va ilmiy stajirovkalarini tashkil etish, hamkorlikda xalqaro va mahalliy loyihalarda ishtirok etish bo'yicha shartnomalar tuzildi. Bu, o'z navbatida, institut professor-o'qituvchilariga xalqaro integratsiya uchun yo'l ochib, ularning mazkur oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan akademik almashinuv dasturlari, loyihalar, o'quv kurslari, seminar va konferensiyalarda ishtirok etishga zamin yaratib beradi. Shuningdek, talaba yoshlarning mazkur universitetlarda ta'lim olishi, soha bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'lishi hamda xorijiy tillarni o'rganishi uchun barcha imkoniyat yaratib berilishi qayd etilgan.

Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti tomonidan Farg'ona politexnika institutiga loyihalar uchun umumiy qiymati yiliga bir million yuangacha bo'lgan miqdorda investitsiya ajratilishi belgilandi. Bu institut olimlarining xalqaro miqyosdagi loyihalarda ishtirok etishini ta'minlaydi.





## Ma'rifat

To'liqin ESHBEK,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Ayni paytda davlatimiz rahbari raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish yuzasidan belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimiz bo'ylab turli tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Chunonchi, "Mahallada duv-duv gap" ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-musiqiy tadbirlarida yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlar mazmun-mohiyati haqida so'z yuritilmoqda.

## NURONIYLAR BOLALARNI SAVOLGA TUTARDI... BUGUN-CHI, BIZ-CHI?

Bugun maqsad-niyatli ezgu yurtdoshlarimiz bir yoqadan bosh chiqarib, ona Vatan taraqqiyoti yo'lida ortga qaytmas islohotlarga o'z hissarini qo'shmoqda. Bu borada nuroniylarimiz — yoshi ulug' otaxon va onaxonlarimiz, buvjonlarimiz yoshlarga ibrat, namuna bo'layotgani quvonarli. Mahallalarimizda uyushmagan yoshlarni yolg'iz qoldirmaslik, qo'llab-quvvatlash uchun "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlar o'z samarasini bermokda.

Ta'lim-tarbiya o'chog'i hisoblanmish maktablar zimmasiga yangi O'zbekistonga munosib avlodni kamolga yetkazishdek o'ta mas'uliyatli vazifa yuklanmoqda. Bu borada Prezidentimizning maktab ta'limi sifatini yaxshilash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishish asnosida ilgari surgan fikrlari har bir ziyolini mushohadaga chorlaydi.

"Mahalladagi muhit, aholi bandligi ko'p jihatdan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga bog'liq. Shunday ekan, mahalla raisi ota-onalar bilan birga maktablar hayotida faol qatnashishi, yoshlarning bilimi va kasb egallashiga e'tiborli bo'lishi kerak", dedi davlatimiz rahbari.

Bolaligimizda qishlog'imiz nuroniylaridan ko'p saboq olganmiz. Ko'cha-ko'ya duch kelib qolgan ba'zi otaxonlar fursati bo'lsa, albatta, bizning bilimlarimizni sinash uchun atay savol-javob qilardi:

— Xo'sh, ulg'ayganingda, maktabni bitirganingdan keyin kim bo'lmoqchisan?

Biror tanlagan kasbimizni aytganingizdan so'ng turli savollarga berishardi: "Qani, ayt-chi, yer yuzida nechta materik va qit'a bor?", "Qaysi ulkan daryolari bilan?", "Nechta okean bor?", "Mendeleyev jadvalida nechta



element bor?", "Pifagor teoremasi nima haqida?", "Fizika fani nimalarni o'rgatadi?", "Alisher Navoiyning qaysi asarlarini bilasan? Qani, birorta g'azal yo ruboiysini yoddan aytib berchi...", "Qaysi badiiy kitoblarni o'qigansan?", "Qaysi gazeta-jurnallarni o'qiyasan?"

Bu savollarga to'g'ri javob berganlar olqish olardi. Otaxonlarning yelkamizga qoqib qo'yishi ota-onamizning erkashidan kam bo'lmasdi. Shu tariqa qalbimizga yo'l topishardi. Ular maktabda ta'lim berayotgan muallimlarimizdan ham ulug'roq ustoz sifatida ajib taassurot qoldirgan.



Savollarga to'g'ri javob bermaganlar esa hatto dashnom eshitishi mumkin edi:

— O'qisang, odam bo'lasan! O'qimasang, xor bo'lasan...

Biz qishlog'imizning ana shunday muhitidan bahramand bo'lib ulg'aygan avlodmiz! Mana, oltmishdan oshdik. Xo'sh, qishloq nuroniylaridan ibrat olib, ularning ana shu an'analari davom ettira olaymizmi? Ya'ni ko'cha-ko'ya mahallamizning biror bolakayi bilan hamsuhbat bo'lib, bilimni sinab ko'raymizmi? Bolalarimizning kitob o'qishiga qiziqaymizmi?

Buning uchun hech qanaqa topshiriq, qaror yo ko'rsatma bo'lishi shart emas! Bolaligimizda bizga shu tariqa mehr ko'rsatgan aziz nuroniylarning ezgu ishlarini davom ettirsaq, olam guliston! "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan maqol zahirida aynan shunday sa'y-harakatlar aks etadi. Katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan har bir nuroniy mahalla bolakaylariga e'tiborli bo'lishi, doimo mehr bilan qarashi ham farz, ham qarzdor.

Mahalla — ma'rifat o'chog'i. Har bir mahallada o'nlab ziyolilar, yetmish, sakson, to'qson bahorni ko'rayotgan aziz muallimlarimiz bor. Maktab faoliyatini, ta'lim sifatini takomillashtirishda ana shu otaxonlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar o'sha ustozlardan ibrat olib, tajribasini o'zlashtirsa, nur ustiga nur bo'lardi. Buning uchun shunday tajribali ustozlarni vaqti-vaqti bilan maktablarga, darslarga taklif etib, qimmatli maslahatlarini olish faqat ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Bu borada mushohada qilar ekanman, o'ylarim she'riy satrlarga ulanib ketdi:

**Mahalla va maktab — meva-yu mag'iz,  
Birisiz boshqasi mantiqdan xoli.  
Asriy bog'lardan ham qolmas edi iz,  
Yetishib turmasa yangi niholi.**

**Nuroniylar misli Avloniy,  
Odobdan dars bergan Munavvarqori:  
Sharhlar ham mangu va nedur oniy,  
Nedur qiz ibosi, yigitlik ori!**

**Ko'plarini hayoti o'tgan maktabda,  
Bo'lmagay dunyoda "sobiq muallim".  
Sakson, to'qsonda ham boqqancha zimdan  
Nabiraga berar hayotdan ta'lim.**

**Mahalla maktabning madadkoridir,  
Hayot hikmatlarini yiqqay arilar.  
Bul ko'hna ochunning sha'n shioridir:  
"Qarilar bilganin bilmas parilar".**

Dolzarb mavzu  
VATANPARVARLIK  
O'Z-O'ZIDAN SHAKLLANMAYDI

Ma'mura ZOHIDOVA,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
o'quv-metodika va harbiy-vatanparvarlik  
bo'limi boshlig'i



Dunyostatistikasi yer yuzining 200 ga yaqin nuqtasida turli mojaroyu nizolar, qurolli to'qnashuvlar yuz berayotganini afsus bilan qayd etmoqda. Tinchlikni saqlab qolish har lahzada dolzarb, har soniyada muhim bo'lib, bu dolzarblik kun sayin ortmoqda. Vatan va xalq himoyasi yo'lida qurolli bilan safda hushyor turish, chegaralarni mustahkamlashning o'zigina yetarli emas. Loqaydlik insoniyatning eng katta dushmaniga aylanib ulgurdi.

Mamlakat ichkarisiga hech bir to'siqsiz, qarshiliksiz kirib kelishi mumkin bo'lgan eng katta xavf esa — axborot xuruj. Bular — yurtdoshlarimizni ichkaridan, qalbidan yemirishga, hatto yuragida bolalikdan shakllangan vatanparvarlik tuyg'usini susaytirishga, yon-veridagi odamlarga bog'liqlik, daxldorlikni yo'qqa chiqarishga qodir kuchlar. Ular, o'z navbatida, bizning bir el sifatida birlashishimizga monelik qiladi, hatto zarar keltiradi. Vatanparvarlik tuyg'usi inson ongida o'z-o'zidan, tezlik bilan shakllanib qolmaydi. Vatanparvarlik boshqa fazilatlaridan alohida yakka holda shakllanadigan tuyg'uy ham emas. Bu tuyg'u qalbdan odamiylik, hayotsevarlik, fidoyilik, g'urur, olijanoblik va e'tiqod mavjud bo'lsagina, kishi rostg'oylik, halollik kabi fazilatlar sohibi bo'lgan taqdiridagina to'la shakllanadi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tash-

uchrashuv va suhbatlarga Yozuvchilar uyushmasi a'zolari jalb qilindi.

2023-yilda aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlar ishtirokida "Vatan manzumi" nomli adabiy-ma'rifiy kechalar tashkil etilib, yurtimizdagi katta sahnalarda namoyish etilgan edi. Ayni vaqtda ushbu adabiy-ma'rifiy dasturni yangicha ko'rinishda tayyorlash ishlar bormoqda. Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, ustoz ijodkorlarning ijodiy ishlari asosida "Mard askarga sovg'a" ruknida 7 nomdagi kitob nashrga tayyorlanmoqda.

Vatan himoyasi va el-yurt sharafiga yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni himoya qiluvchi organlar xodimlarining yustlari o'rnatilgan maktablarda "Mening qahramonim" mavzusida o'tkazilayotgan tadbirlarda ham shoir-yozuvchilar faol ishtirok etdi.

Vazifalar qatorida harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari, talabalar, o'quvchi yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish maqsadida kitob yarmakalari tashkil etishdek muhim



kil etilganligining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida "gi armiyoshi ijrosini ta'minlash, aholida milliy armiyadigan faxrlanish va unga ishonch tuyg'usini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida Yozuvchilar uyushmasi tomonidan harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, yoshlar, shuningdek, professional shoir va ijodkorlar o'rtasida "Posboniman muqaddas yurtning" mavzusidagi insho va she'riy asarlar tanlovi tashkil etildi. Bu tanlov yosh shoir-yozuvchilar o'rtasida ham o'tkazildi. Taqdim etilgan barcha ijodiy ishlar hakamlar hay'ati tomonidan o'rganib chiqilib, g'oliblar aniqlandi hamda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni arafasida Yozuvchilar uyushmasida taqdirlandi. Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilish bilan birga, ijod bilan shug'ullanayotgan hamda tanlovda g'olib bo'lgan harbiylarga tanlov bo'yicha hamkor tashkilot — O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tomonidan ham esdalik sovg'alar va diplomlar ulashildi. Kelgusida ushbu tanlovda g'olib deb topilgan ijodiy ishlarni to'plam holda chop etish rejalashtirilgan.

Farmoyish ijrosiga doir dasturda belgilangan topshiriqlarni bajarish yuzasidan harbiy qismlar, tegishli tashkilotlarda "Yangi O'zbekiston armiyasi — mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiori ostida milliy armiyamizda amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida o'tkazilgan

topshiriq ham mavjud. Yarmakalarni maqsadli va foydali tashkil etish uchun hamkor tashkilotlar bilan birgalikda zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Topshiriqlar ko'lami keng. Ularni hamjihatlikda, yangi-yangi tashabbuslar bilan o'tkazish, milliy armiyamizdan g'ururlanish, unga madad bo'lish, armiyasi saflaridagi o'g'il-qizlarning madrigi va shijoatini yanada o'ttirishga ko'maklashish, bu saflarni jasur, yovqur va fidoyilar bilan to'ldirishga hissa qo'shish shu yurt taqdiriga o'zini daxldor deb bilgan har bir insonning vazifasidir.

Joylarda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va sport tadbirlarini uyushqoqlik bilan qiziqarli tashkil etishda targ'ibot guruhlari jalb qilingan turli soha vakillarining o'imi katta.

"Xalq va armiya — bir tanu bir jon!" tamoyili asosida yanada ulkan ishlar amalga oshirish lozim. Harbiy xizmatning obro'-e'tiborini oshirish, bu sharaflilik kasbga hurmat-ehtiromini yanada kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi kabilar borasida oldimizda yana talay vazifalar bor. Ularga sidqildan kirishilmasa, bo'shliq paydo bo'ladi.

Vatan himoyasi faqat harbiylarning ishi bo'lganida, biz yaqin tarixda barcha ko'p talafot ko'rmas edik. Ko'chadagi har qanday bolani o'z bolamiz deb, uning har bir xatosini o'z xatomiz, yutug'ini o'z yutug'imiz kabi bilmas ekanmiz, jips bo'lishimiz, mushkabi birlashishimiz ancha qiyin bo'ladi. El-yurtga sadoqat tuyg'usini

bolalarimizda hali bog'cha yoshidayoq shakllantirish, ularda harbiy sohaga qiziqish paydo qilishdan tashqari, yurt himoyasiga istalgan lahzada tayyor bo'lish har birimizning vazifamizdir.

Dunyoda vaziyat barqaror emasligini ko'rib turibmiz. Bunday sharoitda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yuksaltirish, harbiy salohiyatini mustahkamlash kun tartibidan biror lahza ham tushmaydigan eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, har bir inson "Vatan tinchligi, armiyamiz qudrati yo'lida men ham qandaydir ishini bajara olamanmi?" deb o'ylashi kerak. Chunki bu yo'lida ko'zlangan maqsadlar ko'plab sohalarda faol bo'lish, yangi g'oyalar, yangi loyihalar, yangi takliflar kiritishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan farzandlarimizning harbiy sohaga e'tibori masalasiga jiddiy yondashuv zarur. Sirdan qaraganda hali maktabga chiqmagan bolalarga harbiy soha to'g'risidagi ma'lumotlar og'irlik qiladigan, hali kerak emasdek tuyuladi. Lekin inson hayoti davomida oladigan ma'lumotlarning katta qismini yetti yoshigacha olib bo'ladi. Agar 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun suratlilik-bezaklik, ikki qator ravon va soddashe'r yo soddacha qiziqir bitilgan kitoblar nashr etilsa, g'oyat foydali bo'lar edi. Nashrlar mamlakatimizdagi barcha davlat, xususiy va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yetkazib berilsa, yoshlarning ushbu sohaga qiziqishi erta shakllanadi. Ularda bugun milliy armiyamiz safiga xizmat qilayotgan ilg'or harbiylarning ham suratlari bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunday kitoblar bilan biz farzandlarga hali u go'dak chog'idanoq ta'sir ko'rsatamiz, juda yoshligidayoq chinakam vatanparvar qilib tarbiyalashga ulkan hissa qo'shishimiz mumkin. Kitoblar har oyda bir marta yangilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, maktablarimizdagi harbiy ta'lim darslarini qayta ko'rib chiqish va darsliklarni takomillashtirish zarur. Harbiy ta'limga oid dars soatlarini shunchaki ko'paytirib qolmasdan, "Harbiy ta'lim" darsligini qayta ishlab, uning qiziqarliligi, hayotiy misollar bilan boyitilganiga e'tibor qarash lozim. Yangicha uslubda, soddavay ravon tilda yozilgan bilan o'quvchilarning bu fanga qiziqishini oshirishga erishamiz. Farzandlarimiz maktabni bitirganida harbiy sohada har qanday favqulodda holatlarga shay bo'lishi kerak.

Biz — ijodkorlar oldida yanabir ulkan vazifa turibdi: harbiy-vatanparvarlikka chorlovchi, saf, chaqirig' qo'shiqlari uchun she'rlar, xizmat vazifasini o'tash chog'ida qahramonlarcha halok bo'lgan yurtdoshlarimiz obraziga gavdalandirilgan nasriy asarlar yaratish.

Bugungi kunda ham Qurolli Kuchlar tizimining turli sohalarda o'z xizmat vazifasini sidqildan ado etib, yurt tinchligi yo'lida shirin jonini fido qilayotgan ko'plab harbiylar bor. Ularning suratlari o'zlarini faoliyat olib borgan tashkilot binosi devorlarida osig'liq turadi, hayotlari, jasorat haqida ma'lumotlar ham beriladi. Biroq bu bilan zamona-miz qahramonlarining badiiy obrazini yaratish, uni xalqimizga taqdim etish ishlari to'laqonli bajarilgan, deb bo'lmaydi. Bu ijodkorlarning harbiy sohaga, sohada yurtdoshlar ichiga kirib bormayotgan dalolat.

Ushbu mavzuda yaratilgan bir necha asarlar, filmlarni mamnuviyat bilan ta'kidlash mumkin. Lekin ularning soni juda oz. Ochiq'ini aytish kerak, necha yillardan buyon harbiylarga bag'ishlangan film va seriallar yuziga kam suratga olinadi. Buning sababi ular obraziga gavdalandirilgan badiiy asarlar kam yaratilayotganidir. Bu borada Qurolli Kuchlar tizimi tashkilotlari — vazirlarlik, idoralar mas'ullari bilan ijodkorlar yig'inlarini tashkil etib, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim bo'ladi. Agar har bir sohada ma'lum qahramon obrazini yaratishga erishsak, nomi va hayoti o'rnak qilib ko'rsatishga munosib qahramonlar timsoli yoritilgan yaxshi filmlar suratga olinishiga zamin hozirlaymiz.

Bugungi kungacha harbiy-vatanparvarlik ruhida yaratilayotgan, saf va marsh qo'shiqlarining ham ta'sirchanligi yetarli bo'lmayotgani sir emas. Bu borada "shoir — bastakor — ijrochi" hamkorligini yo'lga qo'yish, butun Qurolli Kuchlar saflarida ijro qilsa bo'ladigan va ularni tinglagan barchaning yuragiga cho'g' tashlaydigan, vujudini titratadigan yoniq qo'shiqlar yaratilishiga erishish zarur.

Umuman, yoshlarni Vatanga sadoqat, harbiy kasbga hurmat ruhida tarbiyalashda hammamiz mas'ulmiz. Bu mas'uliyatni unustishga yo beparvo bo'lishga haqqimiz yo'q.